

**“O‘zbektelekom” AKda 2026-yilning birinchi choragi uchun korrupsiyaga qarshi  
kurashish tizimining amal qilishi haqida  
UMUMIY HISOBOT**

**I. Kompaniyaning Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilgani  
to‘g‘risida umumiy axborot**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-son qarori bilan joriy etilgan korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimi doirasida “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi 2025-yil yakunlari bo‘yicha baholandi. Hozirgi vaqtda Komplaens departamenti tomonidan reyting baholash natijalarini yanada yaxshilashga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi, shaffofligi va hisobdorligini ta‘minlashni amalga oshirish, ochiqlikni ta‘minlash sohasidagi samaradorlik ko‘rsatkichlarini belgilash va ularning faoliyatini ilg‘or xalqaro standartlar asosida baholash tizimini joriy etish maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.06.2021-yildagi PF-6247-sonli, 14.06.2022-yildagi PF-154-sonli, 30.12.2025-yilgi PF-270-sonli Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining 30.12.2024-yildagi 910-sonli Qarori ijrosini ta‘minlash yuzasidan, “O‘zbektelekom” AK (keyingi o‘rinlarda – Kompaniya) rahbariyatining topshirig‘iga binoan Komplaens departamenti (keyingi o‘rinlarda – Departament) tomonidan Kompaniyaning ochiqlik reytingida yuqori ko‘rsatkichlarga erishish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Matbuot xizmati bilan hamkorlikda Kompaniyaning asosiy veb-sayti (<https://uztelecom.uz/>) yangilandi va qayta tarkiblashtirildi. “Ochiq ma‘lumotlar”, “Ijtimoiy ahamiyatga molik ma‘lumotlar”, “O‘zbektelekom” AK faoliyati ochiqligi ko‘rsatkichlari” bo‘limi yaratildi. Ochiqlik indeksi bo‘yicha 84 ta ko‘rsatkich yuzasidan Kompaniyaning barcha mas‘ul tarkibiy bo‘linmalaridan ma‘lumotlar yig‘ildi, umumlashtirildi va Kompaniya saytiga joylashtirildi.

ISO 37001 xalqaro standarti hamda Kompaniyaning 2024-yil 29-oktabrdagi 343-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasida korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi to‘g‘risida Nizom talablariga muvofiq 8 ta jarayon xaritasi ishlab chiqilgan:

- KQKTni tahlil va boshqarish
- Rejalashtirish
- Marketing va xizmatlar sotuvi
- Loyiha boshqaruvi
- Telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatishni boshqarish
- Xaridlar jarayoni
- Xodimlarni boshqarish
- Infratuzilmani boshqarish

ISO 37001 xalqaro standarti hamda Nizom talablari asosida Kompaniyaning tarkibiy bo'linmalardan har chorakda jarayon xaritasi hisobotlari yig'iladi. Ushbu hisobotlar asosida Kompaniyaning korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi jarayonlari samaradorligini baholash uchun umumiy hisobot tuziladi va Kompaniya rahbariyatiga taqdim etiladi.

Joriy yilning birinchi choragida Kompaniyaning tarkibiy bo'linmalardan 2025-yilning to'rtinchi choragi uchun 8 ta jarayon bo'yicha hisobotlari yig'ildi hamda ushbu hisobotlar asosida korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimi jarayonlarining samaradorligini baholash uchun Kompaniya hisobotlari tuzildi va imzolandi.

## **II. Siyosat va tartib-taomillar**

Joriy yilning birinchi choragi davomida Komplaens departamenti tomonidan Kompaniyaning ichki hujjatlarini aktualizatsiyadan o'tkazish, amaldagi qonunchilik talablariga moslashtirish maqsadida bir necha ichki hujjatlar qayta ko'rib chiqildi.

Kompaniyaning 2026-yil 30-yanvardagi 61-son buyrug'i bilan "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasida xizmat tekshiruvlarini o'tkazish bo'yicha nizom" aktuallashtirildi va yangi tahrirda tasdiqlandi.

"O'zbektelekom" AK aksiyadorlarining 2018-yil 20-apreldagi umumiy yig'ilishining 38-son bayyonnoma qarori bilan tasdiqlangan "O'zbektelekom" AKning Odob-axloq va etika kodeksi" qayta ko'rib chiqildi. Hozirgi vaqtda kelishish va tasdiqlash jarayonida.

Shuningdek, yana bir ichki hujjat, "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan va korrupsiyaga qarshi kurashishda faol ishtirok etgan xodimlarni rag'batlantirish to'g'risidagi nizom" ishkab chiqildi. Hujjat loyihasi hozirgi vaqtda kelishish va tasdiqlash jarayonida.

Bundan tashqari hisobot davrida korrupsiyaga qarshi komplaens nazorat tizimida jarayonlarni avtomatlashtirish, inson omilini minimallashtirish va tizim faoliyatini raqamlashtirish maqsadida Kompaniyaning Manfaatlarni to'qnashuvi va korrupsiyaga oid masalalar bo'yicha aloqa kanallari orqali kelib tushgan murojaatlar bilan ishlash tizimi to'liq raqamlashtirildi. Bunda, aloqa kanallari orqali kelib tushayotgan murojaatlarni yagona elektron tizim orqali qabul qilish, ro'yxatga olish, ko'rib chiqish va ijroga yo'naltirish ishlari amlaga oshiriladi.

## **III. Xavf-xatarlarni baholash**

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash ishlari yiliga bir marotaba yilning birinchi choragida O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining maxsus <https://e-anticor.uz/> platformasida o'tkaziladi. 2026-yilda baholash natijalariga ko'ra Kompaniyada 2 ta "Yuqori", 4 ta "O'rta" va 21 ta "Past" darajadagi xatar Kompaniyaning Komplaens departamenti tomonidan aniqlanib platformaga kiritilgan. Hozirgi vaqtda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan yakuniy natijalarni

tasdiqlanishi va xavf-xatarlarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar tasdiqlanishi kutilmoqda.

Ma'lumot uchun,

- 2025-yilda o'tkazilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijasida aniqlangan 3 ta yuqori darajadagi korrupsiyaviy xatarlarni pasaytirish va bartaraf etish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar natijasida 2026-yilda 1 taga qisqarib 2 ta qolgan.

- 2025-yilda o'tkazilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijasida aniqlangan 11 ta o'rta darajadagi korrupsiyaviy xatarlarni pasaytirish va bartaraf etish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar natijasida 2026-yilda 7 taga qisqarib 4 ta qolgan.

#### **IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar** **Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish**

O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-iyundagi "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi O'RQ-931-son Qonuni hamda Kompaniyaning "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasida Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risida nizom" talablari asosida joriy yilda Kompaniya ijroiya apparatining boshqaruv xodimlari tomonidan 226 ta yillik, 6 ta ishga qabul qilingandagi va rotatsiya munosabati bilan 5 ta, jami 237 ta ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiya, Kompaniya tarkibidagi filiallar boshqaruv xodimlari tomonidan 245 ta yillik ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiya to'ldirildi. Kompaniya bo'yicha to'ldirilgan jami 482 ta ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida deklaratsiyalar Komplaens departamenti tomonidan to'liq tahlil qilindi.

Tahlil natijasida Kompaniyaning 1 ta filialida yaqin qarindoshlarning bir-biriga to'g'ridan-to'g'ri bo'ysunuvi bilan bog'liq manfaatlar to'qnashuvi holati aniqlanib Nizom talablari asosida Odob-ahloq, mehnat nizosi va korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasining tegishli qarori asosida tartibga solindi. Xodim boshqa lavozimga o'tkazildi.

#### **Kontragentlarni tekshirish**

Davlat xaridlarini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvini tahlil qilish va Kompaniya bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxslarning ishonchligini tekshirish bo'yicha joriy yil davomida 56 ta xarid jarayoni kontragentlari, 12 ta hamkor kontragentlar va 83 ta dillerlik kontragentlar tekshirildi.

Xarid jarayoni kontragentlarini tekshirish natijasida 51 ta ijobiy, 5 ta salbiy xulosa olindi. Salbiy xulosalar bo'yicha 1 ta kontragent affillangan tashkilot ekanligi, 4 ta kontragent o'zaro muvofiqlashtirilgan harakatlarni olib borganligi aniqlandi.

#### **Ishga nomzodlarni tekshirish**

Hisobot davrida Kompaniyaga 6 ta yangi xodim ishga qabul qilingan va ularning barchasi o'rnatilgan tartibda tekshirilgan.

Shuningdek, Kompaniyaning 2025-yil 17-mart sanasidagi 120-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha yo‘riqnoma” asosida barcha yangi ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni suhbatdan o‘tkazish jarayonida Komplaens departamenti xodimlarining ishtiroki ta‘minlandi.

## **V. Ta‘lim va kommunikatsiya**

Kompaniyada korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha umumiy o‘quv seminarlarida jami 275 ta xodim ishtirok etdi. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha maxsus o‘quv kurslarda 40 nafar xodim o‘qitildi.

Joriy yilning fevral oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenining PF-270-son farmoni hamda ochqlik indeksi bo‘yicha Kompaniyada o‘qitish ishlari amalga oshirildi.

Kompaniyaning Markaziy, Sharqiy hamda Janubi-G‘arbiy filiallari xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida hamda manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish bo‘yicha filiallarga borgan holda o‘quv seminarlari tashkil etildi

Joriy yilning fevral-mart oylarida O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muxofaza qilish akademiyasida ochilgan “Virtual akademiyasi”da “Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish”, “Davlat xizmatida korrupsiyaga qarshi kurashish”, “Davlat xizmatida halollikni ta‘minlash” mavzularida Kompaniyaning 40 nafar xodimlari o‘z malakasini oshirib tegishli sertifikatlarga ega bo‘ldilar

## **VI. Monitoring va nazorat**

Joriy yilning birinchi choragida Kompaniyaning Markaziy, Sharqiy hamda Janubi-G‘arbiy filiallarida korrupsiyaga qarshi ichki hujjatlari talablari ijrosini monitoring qilish bo‘yicha o‘rganish hamda xodimlarning qonunchilikdagi o‘zgarishlar bilan tanishtirish va huquqiy bilimlarini oshirish maqsadida o‘quv seminarlari tashkil etildi.

## **VII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta‘sir choralari**

2026-yilda Kompaniyaning manfaatlar to‘qnashuvi va korrupsiyaga qarshi masalalar bo‘yicha aloqa kanallari orqali jami 21 ta murojaat kelib tushgan. Shu jumladan:

- ishonch telefon orqali (+998555017787) – 20 ta;
- telegramm bot kanali orqali – 0 ta;
- elektron pochta orqali – 1 ta.

Murojaatlar umumiy masalalarga oid bo‘lib, korrupsiya holatlari aniqlanmagan.